

FRAZEOLOGIZMLAR TABIATI VA XUSUSIYATLARI

Haasanova Gulbahor Davlatjon qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillari 2 kurs magistranti

Bugungi kunga kelib zamonaviy tilshuoslikda Frazzeologiya alohida o`ringa ega. Bu soha jadal rivojlanmoqda va buning ustida ko`plab ilmiy ishlar olib borilmoqda. Frazzeologiya iboralar haqidagi bilimdir. Iboralar, so`z uyushmalari, erkin va turg`un uyushmalar bo`lib frazzeologiyada ular tuzilishi va ma`no jihatdan o`rganiladi. Frazzeologik birlik nutqqa daxldor bo`lgan birlik bo`lib, birdan ortiq mustaqil leksema ko`rinishidagi birikuvdan tashkil topgan obrazli ma`noviy birlik hisoblanadi.: *tepa sochi tikka bo`ldi, boshi osmonga yetdi; to show the feather, to play the first fiddle.*

Barca tillardagi frazzeologik birikmalar, xususan, ingliz tilidagi frazzeologik birikmalar ham, millatning donishmadligini ko`rsatuvchi xalq ijodidir. Ingliz tilidagi frazzeologik birikmalarni kelib chiqishiga ko`ra tadqiqotchilar uchta kata guruhga ajratadi:

1. Ingliz tilidagi ko`hna frazzeologik birikmalar;
2. Boshqa tillardan o`zlashgan frazzeologik birikmalar;
3. Ingliz tilining Amerika variantidan o`zlashgan frazzeologik birikmalar.

Frazzeologik birliklar ingliz xalqining ko`hna tarixi, urf- odatlari, an`analari va tarixiy haqiqatlari bilan bevosita bog`liqdir. Ko`plab frazzeologik birikmalar ingliz xalqining an`analari va e`tiqodi, Angliya tarixining biz bilgan va bilmagan tarixiy haqiqatlarini aks ettiradi. Ko`plab ingliz frazzeologizmlarining kelib chiqish manbaasi badiiy asarlar, turli adabiyotlardan olingan va yozuvchilarning asarlari, bolalar she`riyati, ertaklar va karikatura kabilar sanaladi. Masalan ingliz yozuvchisi Uilyam Shekspir ingliz lug`atini boyitishga katta hissa qo`shgan. U yaratgan



frazeologizmlar Bibliyadan keying ikkinchi o`rinda turadi. Hozir ulardan ba`zilari bilan tanishamiz.

Cakes and ale- pirojnoye va pivo; tashvishsiz hayot.

A fool`s paradise- hayolot dunyosi.

Give the devil his due- dushmanga tan bermoq.

He green- eyed monster- yashil ko`zli berahm shaxs, rashkchi.

Have an itching palm- poraxo`rlik qilmoq, ta`magir.

Lay it on with a trowel- bo`rttirib maqtamoq.

Not to care a fig- hammaga birdek bo`lmoq.

That`s got him- qilmish- qidirmish.

There is a deer- ziyrak bo`ling.

I am feed up with it!- Jonga tegdi! Yetar!

To have a go- sinab ko`rmoq.

Shekspirdan tashqari yana ko`plab ingliz yozuvchilar frazeologiya lug`atini boyitgan. Odatlar, an`analar va e`tiqodga aloqador frazeologizmlarning mualliflari noma`lum, ular qadimda xalq orasida shakllanib brogan. Bunday frazeologik birlikar xalq ijodi na`munasidir.

Ular bir tildan boshqasiga to`g`ridan to`g`ri tarjima qilinmaydi, balki o`sha tildagi ekvivalenti tanlanadi. Bunga sabab har bir xalqning urf- odatlari, qadriyatlari va an`analari turlicha bo`lganidir. Masalan: *bite off more than one can chew*- nonni kata tishlamoq, behuda urunmoq; *have a bee in one`s bonnet*- bo`lmag`ur fikrlar bilan boshini band qilmoq; *hold one`s head high*- boshni baland tutmoq, kekkaymoq; *dance attendance on somebody*- laganbardorlik qilmoq; *also run*- musoboqaning omadi kelmagan ishtirokchisi.

Frazeologiya sohasini o`rgangan tilshunos olimlardan biri bu A. mamatov o`zbek frazeologik birliklarini shakllanish jihatdan 4 tasnifga bo`lgan:



1. Shaxs faoliyati va psixikasi bilan bog`liqligi jihatdan shakllangan frazeologizmlar: ko`ngli ochiq, hafsalasi pir bo`lmoq, yerga ura ko`kka sapchimoq va hokazo.
2. Kasb- hunarga bog`liqligi jihatdan shakllangan frazeologizmlar: bo`zchining mokisidek.
3. Hayvonlarga xos obrazlar asosida shakllangan frazeologizmlar: oyog`i kuygan tovuqday, ammamning buzog`iday, to`ygan qo`zi va hokazo.
4. Dinga bog`liqligi jihatdan shakllangan frazeologizmlar: xudo ko`tarsin, payg`ambar hassassi bilan turgan singari.

Frazeologizmlarda ham leksemalardagi kabi sinonimlik, antonimlik, omonimlik holatlar kuzatiladi. H.Jamolxonovning fikriga binoan, bunday munosabat asosida frazeologik sinonimiya va frazeologik anatomiya vujudga keladi.

Masalan, “og`zi qulog`ida” va “boshi osmonga yetgan” frazeologik birliklari o`zaro sinonim, har ikkalasi ham quvonch va xursandchilikni bildiradi. “Ko`kka ko`tarmoq” va “Yer bilan bitta qilmoq” esa antonim birliklar sanaladi.

Ingliz tilida ham frazeologik birliklar nutqqa tayyor shaklda kiritiladi, ularni boshqa so`z qo`shib hosil qilib bo`lmaydi va bu nutqni yanada obrazli qilishga yordamlashadi. Idiomalar, ya`ni barqaror birikmalar nutqda hamma uchun tushunarli bo`lgan va bevosita nutqda qo`llash uchun qulay bo`lgan birikmalardir. Xuddi o`zbek tilidagidek ingliz tilida ham sinonim, antonym, omonim iboralar talaygina. Masalan, *a dark house*- sirli va *black ship*- o`zgalardan ajralib turuvchi, sirli ma`nolarini bildiruvchi bu ikki birikmalar bir- biriga sinonim bo`la oladi.

Frazeologik birliklar nutqni yanada chiroyli va jozibador qiladi va tilni boyitadi. Ularning kelib chiqishi, tarixi, nima asnosida shakllanganligi to`g`risida ko`plab ingliz, rus, o`zbek olimlari ish olib borishgan. Tilshunos ingliz olimi L. Graff frazeologik birikmalar va ularning uslubiy bog`lanishdagi farqini tsviflagan. U *breakfast* so`zi ham *to break fast* turg`un birikmasidan kelib chiqqanini aytadi.



O`zbek tilida ham bo`lgani kabi ingliz tilida boshqa tildan kirib kelgan so`zlar, iboralar va idiomalar talaygina. Ayniqsa, fransuz va lotin tillaridan ko`plab frazeologizmlar o`zlashgan. Bundan tashqari, yunon, italyan va yana boshqa tillardan ham kirib kelgan so`zlar mavjud.

O`zlashtirilgan frazeologik birikmalar o`zida kitobiylikni namoyon etadi. Frazeologik birikmalar ham bir necha shaklda o`zlashtiriladi:

- a) So`zma- so`z o`zlashtiriladi: *make believe*- mug`ombirlik qilmoq;
- b) Biroz o`zgartirish kiritgan holda, bir qismini o`zgartirib, bir qismini tarjima qilish orqali: *a propas of nothing*- hech narsadan hech narsa yo`q;

O`zbek va ingliz tillarida so`zma- so`z tarjima qilinadigan va bir- biriga to`g`ri keladigan frazeologizmlar ko`p uchraydi. Masalan, *to play with fire*- o`t bilan o`ynashmoq, *first think then speak*- oldin o`yla keyin so`yla kabi. Frazeologik birikmalarni tarjima qilishda asosiy qiyinchiliklardan biri shuki, lug`atlarning hech biri matnda frazeologik birikmalarning rang- barangligi va jozibadorligini ko`rsatib bera olmaydi.

Maqollar ham frazeologik birikmalarga aloqador hisoblanadi, ya`ni u ham frazeologik birikmalarning bir turidir. Ular xuddi frazeologizmlar kabi nutqqa to`g`ridan- to`g`ri olib kelinadi va tarjima jarayonida uning boshqa tildagi ekvivalent variant olinadi. Masalan, *no pains no gains*(og`riq yo`q, yutuq yo`q), *a friend indeed* (muhtojlikdagi, haqiqiy do`st) Do`st kulfatda bilinar.

Maqollar ham o`zaro sinonim, antonym, omonim bo`la olish xususiyatiga egadir. Maqollar bir- biri bilan sinonim bo`lishi mumkin. : *Make hay while the sun shines. Strike the iron while it is hot.*

After rain comes sunshine- yomg`irdan so`ng quyosh chiqadi.

A bird may be known by its song- qushning qandayligini sayrashidan bilsa bo`ladi.

A honey tongue, a heart of gull- tili asal, yuragi zaxar.

A word of spoken is past recalling- aytilgan so`z, otilgan o`q.



After death the doctor- o`limdan keyin doctor, to`ydan keyin nog`ora.

As you brew, so you must drink- nimani qaynatsang shuni ichasan.

Har bir frazeologizmlar rang- barang va boydir. Ularni kundalik hayotda qo`llash nutqimizni yanada chiroyli va ravon qilishga yordam beradi. Yuqorida ko`rib chiqilganidek, frazeologik birikmalarning tahlilidan shunday deyish mumkinki, frazeologiyani tilshunoslikning bir bo`limi sifatida emas, balki mustaqil fan sifatida o`rganish kerak.

Frazeologik birliklarni nutqda qo`llab, ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilib, to`g`ri qo`llashga alohida e`tibor zarur. Bu birliklar nutqqa yoxud badiiy matnga emotsional- ekspressivlik hamda obrazlilik baxsh etishdan tashqari tilning naqadar lug`at imkoniyatlari ko`p ekanligini ifodalaydi.

